

OQOLTIN TUMANAXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

30-iyun “Yoshlar kuni”ga “Kelajak yoshlari” mavzusida
bibliografik sharh



Oqoltin-2026 yil

“Kelajak yoshlari” O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar kuni-O‘zbekistonning milliy bayrami bo‘lib, har yili 30-iyun-O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi. 30-iyun Yoshlar kuni mamlakatimizda yoshlarning jamiyatsdagi o‘rni va rolini e‘tirof etish, ularni qo‘llab-quvvatlash, yangi avlodni ilm-fan, san‘at, sport va innovatsiyalar sohalariga keng jalb etish maqsadida nishonlanadi. Ushbu kun yoshlarning erishayotgan yutuqlarini qadrlash va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2017-yil

30-iyun kuni bo'lib o'tgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida "Yoshlar kuni"ni nishonlash to'g'risida e'lon qilgan. Mazkur sana doirasida mamlakatimizda har yili turli xil tadbirlar, jumladan, sport musobaqalari, ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, iqtidorli yoshlarni e'tirof etish va konsert dasturlari tashkil etiladi. Yoshlar kuni mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan e'tibor va ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar kuni nafaqat bayram, balki u yoshlarga o'z kelajagini qurishda yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradigan ilhom manbai hamdir. Ushbu kun yoshlarga o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z orzularini amalga oshirish va yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shish uchun ulkan motivatsiya beradi. Yurtimizda bayramlar ko'p, lekin yoshlarga bag'ishlangan alohida bayram yo'q. Bugun shu masalani ham hal etadigan vaqt keldi,- dedi O'zbekiston Prezidenti "Kamolot" qurultoyida. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun 30- iyun sanasini mamlakatimizda Yoshlar kuni deb e'lon qilsak, qanday bo'ladi?,- deya taklif bildirdi Shavkat Mirziyoyev. Haqiqatan ham, biz, ota-onalar, ustoz va murabbiylar sizlarni, butun O'zbekiston yoshlarini Vatanimiz, jamiyatimizning hal qiluvchi kuchi deb bilamiz va sizlar hamisha xalqimizning mana shunday yuksak ishonchiga munosib bo'lasiz, deb ishonamiz. Sizlarga yaxshi ma'lum, hozirgi vaqtda yurtimizda "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan shior keng tarqalib, hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Lekin O'zbekistonimizning mana shunday yorug' va farovon istiqbolini bunyod etishdek mas'uliyatli vazifani kim o'z zimmasiga oladi? "Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz. Mana shunday ulug' maqsadga erishish yo'lida, O'zbekiston yoshlar ittifoqini tom ma'noda mamlakatimizdagi barcha yoshlarning tayanchi va suyanchiga aylantirish yo'lida sizlarga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, baxt

va omadyorbo'lishini tilab qolaman",- deya so'zlariga yakun yasadi Prezident. Yoshlar—har bir yurt va milatningboyli, buyuksalohiyatihatda kuch-qudratimanbaidir. Yurtimizda aholining 60 foizdan ziyodqismini30yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkilqiladi. Shu bois hammamlakatimizdayoshlarga g'amxo'rlikqilish, ular kelajakda komilinson bo'lib voyaga yetishiva yurt taraqqiyotiyo'lida o'z imkoniyativa salohiyatiniishga solishiuchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda muhtaram Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Transport sohasining barcha jabhalarida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoshlarning mustaqil fikri, zamonaviy bilim va ko'nikmalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda transport sohasida 35 mingga yaqin yoshlar faoliyat yuritib kelmoqda. Transport sohasi yosh xodimlari Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan o'qib, o'z ustida ishlab sohani yangi darajaga ko'tarish uchun kuch g'ayratini ayamasdan harakat qilishiga ishonaman. Umid qilamanki, Prezidentimizning yoshlarga bildirayotgan yuksak ishonchini oqlash uchun imkoniyatlardan unumli foydalanib, yanada ko'proq o'qib va izlanib, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib, ishlab chiqarishga joriy qilish orqali sohamizni yanada takomillashtirishda o'z g'oyalaringiz bilan faol qatnashasiz. Shu muqaddas zaminni asrab-avaylash, mehnatkash xalqimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, yurtimizni dunyoning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqishdek nihoyatda sharaflı ishda yoshlarga ishonishimizni, ularga suyanishimizni ta'kidlab, mana shu mas'uliyatli vazifani vijdonan, sidqidildan ado etishda barcha yoshlarga kuch-quvvat, ulkan zafarlar tilayman. Yoshlar kuni bayrami munosabati bilan davlatimiz rahbarining navqiron avlod peshqadam vakillarini taqdirlashga oid farmon va qarorlari e'lon qilinishi yaxshi an'anaga aylandi. Bunda asosan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng

ko'lamli islohotlarda alohida faollik ko'rsatib, o'zining bilim va qobiliyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan yurtimiz taraqqiyotini yuksaltirish, jonajon Vatanimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan yigit-qizlar mukofotlanayotgani tahsinga sazovor. Birinchidan, mamlakatimizda so'nggi yetti yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarishda "katta sakrash davri" bo'ldi. Shu yetti yil ichida yoshlarga oid 100 dan ziyod qonun va qaror qabul qilinib, 200 dan ortiq imtiyoz berildi.

Ikkinchidan, birgina ta'lim kreditidan 151 ming yoshlar foydalandi. Ehtiyojmand oiladan bo'lgan yana 110 ming talabaning kontraktini to'lashga 332 milliard so'm ajratildi. Natijada oliy ta'limda qamrov 9 foizdan 42 foizga, oliygohlar soni esa 77 tadan 212 taga yetdi. Uchinchidan, bugungi kunda Vatanimizning 110 ming nafar o'g'il-qizi xorijda tahsil olmoqda. To'rtinchidan, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yetti yilda AQSHning "Pechak ligasi"ga kiruvchi Garvard, Yel, Kolumbiya, Stenford kabi top-8 ta, Buyuk Britaniyanining "Russell guruhi"dagi Oksford, Kembridj, Birmingem kabi 24 ta oliygohni 50 nafar yoshlarimiz bitirdi. Bu nufuzli oliygohlarda o'qiyotgan o'zbekistonlik yoshlar soni 200 dan oshdi.

Beshinchidan, 2024-yilda maktablarni 14 mingdan ziyod o'quvchi oltin va kumush medallar bilan bitirdi. Maktab o'quvchilari "Katta beshlik" fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan medallar oxirgi to'rt yilda 2 karra ko'paydi. O'z navbatida, davlatimiz rahbari O'zbekiston yoshlariga qaratilayotgan e'tibor va sharoitlarni karra-karra ko'paytirish bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, mamlakatimiz jadal rivojlanishi uchun "to'rtinchi sanoat inqilobi" kasblari juda muhimligini inobatga olgan holda, yoshlarning fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika (STEM) bilan bog'liq kasblarga qiziqishini oshirish uchun yangi tizim joriy qilinadi. Shuningdek, yangi– 2024/2025 o'quv yilidan oliygohlar qoshidagi jami 73 ta akademik litseyda tajriba tarzida "Xalqaro bakalavriat" va "A-level" dasturlari joriy etiladi. Bu dasturlar asosida sertifikat olgan o'quvchilar o'sha oliygohga imtihonsiz, kontrakt asosida qabul qilinadi. Yurtimiz yoshlari xorijiy oliygohlarda o'qish

uchun matematika, ingliz tili va ilmiy fikrlash bo'yicha "AST" imtihonini topshirayapti va ushbu testlarda 75 foizdan yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar chet elning eng nufuzli oliygohlariga grant yutayapti. Endi bunday yoshlarni o'zimizning oliygohlarga ham grantga qabul qilamiz, dedi O'zbekiston Prezidenti. Haqiqatan ham, yoshlar masalasi har doim davlatimiz siyosati darajasidagi muhim masala bo'lib kelgan. So'nggi yillarda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyatlar, ularning o'qib-o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o'ziga jalb etmoqda. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun har bir hududda zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz– yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. BMT Bosh Assambleyasi 1999-yil 17-dekabrdagi 54/120-sonli rezolyutsiya bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi vazirlar konferensiyasining 12-avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilish haqidagi tavsiyasini ma'qullagan. Ushbu kunda jahon hamjamiyatining diqqat-e'tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi. Eslatib o'tamiz, milliy qonunchiligimizga ko'ra 30-iyun–O'zbekistonda Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi– O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilandi. Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Farmon

bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan. Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar Agentlik tomonidan to'g'ridan to'g'ri yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalar taqsimlash orqali moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 27-iyunda "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga quyidagi qo'shimcha funksiyalar yuklandi:

yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo'lgan chet tillarini mukammal o'zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish;

xorijiy tillarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanuvchi YATTLar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari (xususi o'quv markazlari), ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar tayyorlash;

xususi o'quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o'rinni egallaganlarni rag'batlantirish;

yoshlarorasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishni targ'ib qilish, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko'rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish. Shuni ham qayd etish kerakki, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzilgani, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etilgani yurtimizda soha rivoji sari qo'yilgan yirik amaliy qadamlar bo'ldi. Yanada muhimi, ikki yillik konstitutsiyaviy islohot

natijalaridir. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36 million 963 ming kishidan oshgan bo'lib, 14-30 yoshgacha bo'lganlar soni 9 million 600 ming nafarni tashkil etgan. Ya'ni, mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham, mehnatga layoqatli yoshlarning ko'pligi nuqtayi nazardan ham katta davlatga aylanmoqda. Yurtimiz aholisi 2040-yilga borib 50 millionga yetishi, jamiyatning yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda. Yoshlarimizga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Shu ma'noda, ayni masalaning yechimi ham mustahkam huquqiy poydevor– O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilishni taqozo etdi. Shu o'rinda, avvalo, Asosiy qonunimizning alohida bobi– XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanganiga hamda undan yoshlarga oid qator normalar o'rin olganiga e'tibor qaratish darkor. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz, Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag'batlantirilishi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faolishtiroketishinirag'batlantiradi". Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to'rtinchi bandida shunday deyilgan: "Davlat vajamiyat bolalarda hamdayoshlarda miliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqningboy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularinishaklantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi". Yana bir muhim yangilik: yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar

yaratish– davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida Asosiy qonunga kiritildi. Konstitutsiyaning 79 moddasi ikkinchi bandiga ko'ra: "Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'inisga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi". Shu o'rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta'limga oid normalar 50, 51 va 52-moddalarda o'z aksini topdi. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasi birinchi bandida: "Harkimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi", deb ta'kidlangan. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g'amxo'rlik masala-sida o'z zimmasiga g'oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O'zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shunday ekan, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz "Yoshlar Konstitutsiyasi" deya e'tirof etilayotgani bejiz emas. Xulosa qilib aytganda, yosh avlod haqida g'amxo'rlik ko'rsatilar ekan, avvalo ular bizning tayanchimiz va ertangi kelajagimizning davomchilari ekanligi, yoshlarga oid qonunchilik tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish qulay huquqiy va tashkiliy iqtisodiy imkoniyatlar barpo qilish, ularning kasb-hunar o'rganishlari, mehnat qilishlari, erkin ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish ishlari diqqat markazimizda turadi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va

kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas. 30-iyun "Yoshlar kuni" bilan Yangi O'zbekistonning ertasi bo'lgan barcha yoshlarni samimiy muborakbod etaman!

Foydalangan saydlar:

<https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/33187>

<http://nhrc.uz/oz/news/m1350>